



Ethnopedagogical nature and classification features in the formation of folk games as an ideal person

Kamolakhon ASKAROVA¹, Shoira ZIYAEVA²

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2021

Received in revised form

15 September 2021

Accepted 20 October 2021

Available online

15 November 2021

Keywords:

folk games,
ethnopedagogy,
ideal man.

ABSTRACT

This article is about the history of folk games. The views of Central Asian thinkers on folk games, ethnopedagogical significance and classification features of folk games in the formation of a perfect person are described.

2181-1415/© 2021 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp398-404>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Xalq o'yinlarining komil inson – shaxs sifatida shakllanishida etnopedagogik mohiyati va tasnifiy xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

xalq o'yinlari,
etnopedagogika,
komil inson.

Ushbu maqolada xalq o'yinlarining paydo bo'lish tarixi, xalq o'yinlari haqida O'rta Osiyo mutafakkirlarining fikrlari, xalq o'yinlarining komil inson – shaxs sifatida shakllanishida etnopedagogik mohiyati va tasnifiy xususiyatlari bayon etilgan.

Этнопедагогическая природа и классификационные особенности в формировании народных игр как идеального человека

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

народные игры,
этнопедагогика,
идеальный мужчина.

Эта статья об истории народных игр. Описаны взгляды мыслителей Центральной Азии на народные игры, этнопедагогическое значение и классификационные

¹ Independent Applicant (PhD). Fergana State University. Fergana, Uzbekistan.

² II-Master's Degree, Fergana State University. Fergana, Uzbekistan.

особенности народных игр в формировании совершенного человека.

Bugungi kunda unutilib borayotgan qator milliy o'yinlarni kengroq targ'ib etish yo'li bilan yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalash, sog'lom turmush tarziga targ'ib etish, ularning intellektual salohiyati bilan birgalikda, jismonan barkamol bo'lib voyaga yetishishlarini ta'minlash asosiy vazifalarimizdan biridir. Zero, milliy o'yinlarimizning har birida komillik, mardlik, jasurlik, rostgo'ylik va zukkolik talab etiladi.

Bu haqida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Xalq o'yinlarining komil inson – shaxs sifatida shakllanishida etnopedagogik mohiyati va tasnifiy xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Xalq o'yinlarining paydo bo'lish tarixi jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlari bo'lgan uzoq moziyga borib taqaladi. Tarixiy, arxeologik va etnografik manbalarda ham xalq o'yinlarining kelib chiqishi hamda rivojlanishiga doir qiziqarli ma'lumotlarni uchratamiz.

Har bir xalq o'tmish avlodlaridan qolgan madaniy merosiga ega bo'lib, uning madaniy boyliklari xazinasiga xalq o'yinlari ham kiradi. Xalq o'yinlari o'zining vujudga kelishi va rivojlanishiga ko'ra g'ayrioddiy hodisa emas, balki xalqning hayotini obrazli, muayyan aks ettiradigan va jamiyat taraqqiyoti qonunlariga hamohang belgilanadigan faoliyatdir.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, ibtidoiy ovchilar hayotida ovchilik o'yinlari muhim o'rin tutgan. Ba'zi manbalarda ular ovdan oldin o'tkazilishi yozilgan bo'lsa, boshqalarida ovdan so'nggi o'yinlar haqida fikrlar bayon etilgan. Agar bu ma'lumotlarni chuqurroq tahlil etadigan bo'lsak, unda ovchilik o'yinlari ovdan oldin ham, undan so'ng ham o'tkazilgan, deyish mumkin. Ovdan oldingi o'yinlar – avvalda mashq (ovga tayyorgarlikni tekshirish, ovga ruhiy va jismoniy tayyorgarlik) vazifasini o'tagan hamda jiddiy o'ziga xos kichik ibtidoiy odamlar o'ljani osongina qo'lga tushirish, unga yaqinlashishni o'rganishgan, buning uchun niqob kiyib, hayvon qiyofasiga tushishni, uning yurish-turishlari va tovush chiqarishlarini mashq qilishgan.

Aynan ana shunday o'yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilishga o'rgatishgan. Shu boisdan ham u o'ziga xos maktab vazifasini o'tab, bir tomondan, ovchilar mahoratini o'stirishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, ularda taqlid san'atini shakllantirgan va rivojlantirgan.

Paleolit davrining oxirlarida otish qurollari nayza, keyinroq esa kamon, yoydan otish kashf etildi. Grek tarixchisi Gerodot xorazmiylar bilan yonma-yon yashagan saklar qabilasidagi mohir merganlar haqida bunday deb yozgan: "Saklar dunyodagi merganlar orasida o'qni zoye ketkazmaydigan juda mohir merganlar sifatida shuhrat qozongan edi".

Xalq o'yinlari tasodifan paydo bo'lgan emas, qadimiy ajdodlarimiz ularni shu darajaga olib kelgunlaricha og'ir, mashaqqatli yo'lni bosib o'tganlar. Har bir davrda o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan barkamol qilib tarbiyalash tabiiy va ijtimoiy zaruriyat edi. Demak, ajdodlarimizning ovchiligi asosida "ovchilik o'yinlari"; chorvachilik asosida "ho'kiz, ot, ayiq, bo'ri, tulki va boshqa o'yinlari", dehqonchilik asosida – "mehnat o'yinlari" shakllandi.

Rim yozuvchisi Kliment Aleksandriyskiy (eramizdan oldingi II asr) saklar qabilasining ayollari haqida bunday deb yozgan edi: “Sak ayollari ayyorlik bilan qochib keta turib, ot ustida xuddi erkaklarday orqaga burilib o‘q uzar edilar” [2].

Xalqning yashashi, mehnati va o‘z-o‘zini himoya qilish ehtiyojlaridan xalq o‘yinlari kelib chiqqan. Xalqimizning ajoyib dostoni bo‘lgan “Alpomish” dostonida tirandozlik haqida so‘z ketadi. Chunonchi, “Hakimbek yetti yoshga kirgan edi. Oltinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birinchdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. Ana shu yetti yashar bola - Hakimbek shul o‘n to‘rt botmon yoyni qo‘liga ushlab ko‘tarib tortdi, tortib qo‘yib yubordi. Yoyni o‘qi yashinday bo‘lib ketdi. Asqar tog‘ining katta cho‘qqisini yulib o‘tdi...” Dostonning asosiy qahramonlaridan biri bo‘lgan Barchin erga tegish uchun to‘rtta shart qo‘ydi. Shartlarning ikkitasi o‘q-yoy otish bilan bog‘liq. Masalan, ikkinchi shart: “...yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga, - men tegaman shul yoyandoz polvonga”, - deydi. Uchinchi shart:

*Ming qadamdan tanga pulni urganga,
Men tegaman shul qarchig‘ay merganga.*

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Umar Xayyomning “Navro‘znoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Husayn Voiz Koshifiyning “Fituvvatnomayi Sultoniy yoxud Javonmardlik tariqati”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Lisonut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, Zayniddin Vosifiyning “Nodir voqealar”, Amir Temurning “Temur tuzuklari”, “Temurnoma”, Zahiriddin Boburning “Boburnoma” va boshqalar, shuningdek, Oybekning “Alisher Navoiy” tarixiy romani, “Bolalik” qissasi, Pirmuhammadning “Yulduzli tunlar”, Mirmuhsinning “Temur Malik” Raddiy Fishning “Jaloliddin Rumiy” va shu kabi tarixiy, ilmiy, badiiy asarlarida xalq o‘yinlarining paydo bo‘lishi tarixi va rivoji to‘g‘risida qiziqarli ma‘lumotlar berilgan.

Zayniddin Vosifiyning hikoya qilishicha, “Navro‘z Ahmad kamondorlikda shu darajaga yetdiki, birorta pahlavon ham uningdek kamon tortolmasdi”. Uning yoy o‘qi dushman ko‘ziga borib yetmay tinchimasdi; kamon tortgan vaqtida falak qavs chillaxonasidan turib tahsinga og‘iz ochardi. O‘qi otilgan vaqtda burchaklardan “Ofarin” ovozi ko‘tarilardi...” [4]

Xalqimiz orasida ot bilan bog‘liq “Ko‘pkari-uloq”, “Poyga”, “Qiz quvmoq”, “Ag‘darish”, “Ot ustida qilichbozlik”, “Qovoq o‘yini”, “Chavgon” kabi xalq o‘yinlari ko‘plab o‘tkazilgan.

Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma” asarida “Uloq” so‘zini ko‘p ishlatgan. Al-Maqsudiy Qurbon hayiti haqida yozganda: “Bayram kuni jurjonliklar bilan bekrobodliklar o‘rtasida tuya kallasini qo‘lga kiritish uchun tortishuv bo‘ladi”, - deb qimmatli ma‘lumot qoldirgan.

O‘zbek xalq o‘yinlarining tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. O‘yinlar xalqning o‘zi singari qadimiy va boy tarixga ega. Xalq o‘yinlarining nomlanishi va ularning o‘ynalishi tarkibi to‘g‘risida turkiyzabon olim Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit-turk” asarida qimmatli ma‘lumotlar keltiradi.

Mahmud Koshg‘ariy keltirgan ma‘lumotlar o‘yinlarning tarixiy zaminiga va asosga ega ekanligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, o‘yin nomlari va o‘yinlarning o‘ynalishi tarkibi avloddan avlodga o‘tib kelgan. Shunday savol tug‘iladi: qanday o‘yinlari bo‘lgan? O‘zbek xalqining shoh asari hisoblangan. “Devonu lug‘otit-turk” da o‘yinlar to‘g‘risida muhim ma‘lumotlar keltiriladi.

Afsuski, qadimiy o‘yin nomlari tatbiq etilmagan, o‘yinlarning o‘ynalishi tartibi tiklanmagan. Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida zikr etilgan o‘yinlar nomini va uning tartibini tiklash va tatbiq etish katta ahamiyatga ega. Zero, o‘yinlar xalq madaniyatining ajralmas

bir bo'lagidir. "Devonu lug'otit-turk" da anchagina o'yinlarning nomlari keltirilgan. Ayrim o'yinlarning o'ynalish tartibi batafsil keltirilgan. Hozirgi kunda bolalar sevib o'ynayotgan yong'oq, poylama singari o'yinlar ushbu asardan joy olgan.

X–XII-asrlarda ham ommaviy bo'lgan. Bu hodisaning hozirgi nomi do'l "Devonu lug'otit-turk" da yong'oq o'yini bilan bevosita bog'liq bo'lgan anchagina hodisalarining nomlari qayd etilgan. "Chavgon" haqidagi ma'lumotlarni A.Navoiy, Bobur va boshqa klassik asarlarda ham uchratish mumkin. Firdavsiyning "Shohnomasi" da esa chavgon haqida voqea bayon qilinadi.

Mahmud Koshg'ariy o'yin nomini chavgon to'pini uradigan cho'p nomidan olinganligini ta'kidlaydi. Chavgon cho'pi shu nom bilan atalgan bo'lib fors-tojikcha so'zdir. Uning ma'nosi "uchi egri, uzun tayoq" degani. Mahmud Koshg'ariy lug'atidan o'rin olgan bolalarning sevimli o'yinlaridan biri "Ko'chirma o'yini", ya'ni o'n to'rt degan o'yindir. Yerga qo'rg'onga o'xshatib to'rtta eshik qilinadi. Shu eshiklardan yumaloq tosh yoki yong'oq tashlab o'ynaladi. Bu o'yinning o'ynalish tartibi hozirda bolalar o'ynaydigan mak-mak, ko'chmak o'yinlariga o'xshab ketadi.

Mahmud Koshg'ariy ham chavandozlik va tirandozlikka doir ko'plab misollar keltiradi: "o'q otishga usta odam – mergan", "ot poygasida va chavgon o'yinida maydon qirg'og'iga tortiladigan arqon", "chavgon o'yini maydonida chegarani belgilab chizilgan chiziq", "chavandoz", "u otni chiviq bilan sekin urdi", "ot surdi", "ot terladi", "balandlatib otdi", "tegdi, tegib o'tib ketdi", "poyga", "ot poygasi", "u otda poyga qildi", "yo'rg'a ot", "odam o'qni kamonga to'g'riladi", "otlik otni qattiq choptirdi – yo'rtdi", "ot anjomlari: yugan, jabduq – egar ustiga qo'yiladigan yostiq yoki ko'rpacha" [6].

O'tmishda kattalar va kichiklar sevib o'ynagan o'yinlardan biri koptok o'yini bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy lug'atida koptok nomi tabiiq deb berilgan. Koptok o'yinini ko'proq turk qavliga mansub aholi o'ynagan. O'yin boshida kimki koptokni tayoq ayrisi bilan qattiq ursa, o'yinni o'sha boshlagan. Qadimda rezina koptoklar bo'lmagan. Albatta, ijodkor xalqimiz yung va ipak matodan chiroyli koptoklar (bo'lmagan, albatta, ijodkor xalqimiz) o'ynashgan.

Sigir, tuya, ot juni koptok yasash uchun eng yaxshi xomashyo hisoblangan. Koptok bilan o'ynaladigan o'yinlarning turi ham ko'p bo'lgan.

"Mungiz-mungiz" nomli bolalar o'yini quyidagicha o'ynaladi. Bolalar birorta chuqur bo'lmagan chuqur atrofida o'tirishadi.

Sonlari orasida ho'l qum olib to'ldiriladilar. So'ng qumni qo'llari bilan uradilar. Ulardan biri (onaboshi) mungiz-mungiz deydi. Qolganlar na mungiz deydi. Onaboshi birin-ketin shoxli hayvonlar nomini aytadi, bolalar takrorlaydilar.

Onaboshi shu nomlar orasiga tuya, ot va boshqa shoxi yo'q hayvonlar nomini aytib chalg'itadi. Bolalarning birortasi uning ketidan shoxsiz hayvon nomini aytib yuborsa, o'yin shartiga muvofiq uni chuqurga itarib yuborishadi.

Bobokalonlarimiz Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino asarlarida ham bolalar ijodkorligi folklor o'yinlariga taalluqli ma'lumotlar juda ko'p uchraydi.

Hozirgi paytda biz "Sport musobaqalari" deb ishlatib yurgan ibora Mahmud Koshg'ariy devonida "bahs" atamasi bilan berilgan. Bunday "bahs"larning turlari ko'p bo'lganligi ham bayon qilingan. Masalan, merganlikda bahs qilmoq, o'q-yoy otib, qush va hayvonlarni ovlamoq, shuningdek, arqon, taxtali sopqonlarda tosh otmoq, balandga ilib qo'yilgan qovoqni mo'ljalga olib otmoq bahsi. Bu "Oltin qovoq" o'yini deb atalgan. "Devon"da bunday bahslarning qoida va shartlari, usullari, g'oliblarga beriladigan sovrinlar, zaruriy asbob-anjomlar, maxsus atamalar batafsil bayon etilgan.

Ma'lumki, chavgon O'rta Osiyo xalqlarining juda qadimgi hamda sevimli ot sporti o'yinlaridan biri hisoblanadi. Chim ustida xokkey o'yini qadimda yigitlar ot ustida uzun, uchi egri, yapaloq "klushka" bilan o'ynalgan o'yinning hozirgi ko'rinishidir.

Mahmud Koshg'ariy chavgon o'yinining o'ziga xos qoidalari, maydonning o'lchami va chegarasi ta'rifi, darvozalar, koptokning o'lchami, katta-kichikligi, nimadan tayyorlanishi va boshqa xususiyatlarini to'liq bayon qilib beradi. Shuning o'zi ham chavgon o'yini yigitlarning balog'at yoshiga yetib, otda yurganda o'zini bemalol his qilib, tuta bilish, uning ustida chaqqonlik va bilak kuchi bilan xilma-xil harakatlar qilishga tayyorlaydigan milliy sport turi ekanligini ko'rsatib turibdi. Ayniqsa, chavgon o'yini el-yurt mudofaasida zaruriy jismoniy mashqlardan biri bo'lganligi uchun ham o'yin g'olibiga beriladigan sovrinlarning darajasiga alohida to'xtalib o'tadi.

Shuningdek, "Devon"da o'sha davrda otda poyga chopish, quvlashish, tez yo'rtib yurish, tog'ga chiqish, pastlikka tushish kabi „bahs“lar bayoni ham keltirilgan. Devonda „Oqsuyak“ o'yini misol tariqasida keltiriladi. Alisher Navoiy ham o'zining „Mahbub ul-qulub“ asarida „Oqsuyak“ o'yinining ta'rifini beradi. Mahmud Koshg'ariy "Devon"i XI asrda bitilgan bo'lsa, Alisher Navoiyning „Mahbub ul-qulub“ asari XV-asrda yozilgan.

Hozirgi paytda ham bolalar "Oqsuyak" o'yinini xuddi o'sha qoida asosida o'ynaydilar. "Oqsuyak" o'yini nafaqat O'rta Osiyoda, balki yer kurrasining ko'p joylarida keng tarqalgan. Bu o'yinni Yevropaning Skandinaviya mamlakatlari xalqlari etnografiyasiga oid adabiyotlarda o'qish mumkin. Hattoki, ushbu o'yin Avstraliyada ham uchraydi. Aslida, xalq o'yinlari hech qachon chegara bilmaydi. Aksincha, o'yinlar xalqlar, elatlar orasidagi o'zaro do'stlik, qon-qardoshlik rishtalarini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Kaykovusning "Qobusnoma" asari XI-asrda yaratilgan bo'lib, u xalq orasida nihoyatda mashhur bo'lgan ajoyib axloqiy asar hisoblanadi. "Qobusnoma" mo'jaz rivoyatlar, ixcham latifalar, kichik-kichik hikoyatlardan iboratdir. "Qobusnoma"ning "Hunarning afzalligi va qadri baland, oliy tabiatli bo'lish haqida", "Mazax qilmoq, shatranj va nard o'ynamoq odobi bayoni zikrida", "Shikorga chiqmoq zikrida", "Chavgon o'ynamoq zikrida", "Chaxorpoy (ot) sotib olmoqning zikrida", "Farzand parvarish qilmoq zikrida" degan boblarida xalq o'yinlariga tegishli bo'lgan ma'lumotlar berilgan.

Kaykovus chavgon o'yinining tartibi, qoidalari haqida o'rinli maslahat beradi: "Ey farzand, agar tomosha uchun bir-ikki martaba chavgon o'ynasang, ravodur va lekin ko'p otlig' bila chiqib izdihom¹ qilmag'ilkim, sakkiz otliqdin ziyoda bo'lishga hojat yo'q. Sen maydonning bir boshida turg'il, yana bir kishi maydonning oxirida tursin. Olti kishi maydonda to'p ursin, har vaqt to'p sening tarafingga kelsa, to'pni urg'il va maydonning oxiriga surg'il, ammo olomonning ichiga otmag'il, chavgon o'yinining yo'li shudir. Shu bilan birga, marraga yetkazishga muvaffaq bo'l. Ammo urush maydoniga kirsang, sustkashlik qilmagil, darang sustkashlik yaxshi ermasdur [5].

Demak, o'yinlar-xalqning tabiiy va tarixiy ehtiyoji asosida shakllangan, ajdodlar turmushi, mehnati, tajribasi, kurashi, yutuqlarini boshqa shaklda aks ettiradigan, inson madaniyatining eng ko'hna shakllari, ko'pgina ma'naviy sohalar chashmasi, sog'lom avlodni shakllantiruvchi tarbiya vositasi va zamondoshlarimizning jismoniy, ruhiy, aqliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omildir.

O'zbek xalq milliy o'yinlarining anchagina qismi bevosita harakatlar bilan bog'liq bo'lib, ular bolalarni chaqqon, epchil, ziyrak, topqir, kuchli va sog'lom bo'lib o'sishlariga imkon beradi.

Xalq o'yinlari yangi sog'lom avlodni shakllantirishda ham o'ta muhim o'rin tutadi, ularni biz ko'z qorachig'idek asrashimiz, e'zozlashimiz va ulardan oqilona foydalanishimiz zarur.

O'zbek xalq milliy o'yinlari o'zining uzoq o'tmishi, boy tarixiga ega bo'lgan, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o'tib kelayotgan, ma'naviy boyligimiz, qadriyatlarimizdan sanaladi. Zero, bolalar va o'smirlarni har tomonlama sog'lom, jismonan baquvvat, ma'nan zukko va topqir bo'lib ulg'ayishlarida har bitta milliy o'yinimizning o'z o'rnini bor.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino nafaqat mashhur shifokor, faylasuf, shoirgina bo'lib qolmasdan, balki xalq o'yinlariga doir g'oyat rang-barang nodir meros qoldirgan allomadir. U xalq o'yinlari haqida fikr yuritar ekan, ayniqsa, badantarbiyaning kishi uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlab berdi.

Ibn Sino inson organizmini sog'lomlashtirish va kasallikni davolash nuqtayi nazaridan qarab, xalq o'yinlaridan biri bo'lgan badantarbiyani beshta asosiy qismga ajratadi. Jumladan:

1. Tez harakatlar.
2. Nozik va yengil harakatlar.
3. Kuchliroq harakatlar.
4. O'rta kuchli harakatlar.

Gavda uchun maxsus harakatlar. U badantarbiyani tez harakatlar turiga kiritadi, ular, asosan, milliy xalq o'yinlari yoki ularning ayrim unsurlaridan iborat. Masalan:

- o'zaro tortilish;
- musht bilan turtishish;
- yoydan o'q otish;
- tez yurish;
- nayza otish;
- yuqoridagi bir narsaga irg'ib osilish;
- bir oyoqda sakrash;
- qilichbozlik;
- nayzabozlik;
- otda yurish;
- ikki qo'lni silkitish: bu vaqtda odam oyoq uchida turib, qo'llarini oldga va orqaga cho'zib, tez harakat qiladi.

Olim o'yin turlari va unsurlarini shunchaki sanab o'tmasdan, balki xalq donishmandligi asosida o'zining kuchli bilimi bilan ularni boyitib, inson kamoloti uchun qay tarzda foydali ekanligini tushuntiradi.

Ulug' hakim isitmadan holsizlangan, ko'krak va qorin to'sig'i kasalligidan zaiflashgan kishilarga, asab tizimining charchashidan kelib chiqqan parishonxotirlik, ishtaha bo'g'ilishi kabi kasalliklardan qiynalayotganlarga o'yinlarning quyidagi nozik va yengil turlari:

- arg'imchoqlarda uchish;
- belanchaklarda til holda o'tirib yoki yotib uchish;
- qayiq yoki kemalarda sayr qilish;

Kuchliroq o'yinlardan esa:

- ot va tuyaga minish;
- kajava va aravalarga tushishni tavsiya qiladi.

Xalq o'yinlarining kuchli turlariga maydonda bajariladigan quyidagi harakatlarni kiritadi:

- kishining o'z soyasi bilan olishishi;
- chapak chalish;
- sakrash;
- nayza uchi bilan sanchish [3].

O'zbek xalq o'yinlari o'zlarning serharakatligi, barcha organizm va muskullarni chidamlilikka o'rgatuvchanligi, chiniqtiruvchi harakatlardan tashkil topganligi bilan boshqa xalqlar o'yinlaridan farq qiladi.

Xalq o'yinlari har bir faslga mos bo'lgan. Xalq o'yinlari xalq pedagogikasining manbalaridan biri bo'lib, bolalarda ko'plab insoniy sifat va xususiyatlarni shakllantirish imkonini beradi. Har qaysi ma'lum darajada xalqning mehnat faoliyatini aks ettiradi, ya'ni bolalarda mehnat uchun zarur ko'nikmalar va xislatlarni hosil qilishga qaratilgan bo'ladi. Bolalarning jismonan baquvvat, qo'rqmas, qiyinchiliklarni mustaqil yengib o'tadigan, o'zini va Vatanini himoya qilishga shay, go'zallikni his etuvchi bo'lib yetilishida xalq o'yinlarining imkoniyatlari katta. Xalq o'yinlari yoshlarda badantarbiya bilan muntazam shug'ullanish ehtiyojini tug'dirish vazifasini ham to'laroq hal etadi. Eng asosiysi, xalq o'yinlari xalqning yashash ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi sababli bolalarni kelajakda aynan shu milliy-ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli turmush kechirishini ta'minlashga qaratilganligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

2. Афонасин Е.В. «Гносеология» Климента Александрийского и греческая философия, – Климент Александрийский. Строматы. Пер. Е.В. Афонасина. Т. 1. М., 2003, – С. 503–542.

3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari, 1–5 kitoblar [2-nashri], T., 1979–1983.

4. Zayniddin Vosifiy. "Badoe' ul-vaqoe'" ("Nodir voqealar"). T., G'afur G'ulom nashriyoti, 1979.

5. Kaykovus. "Qobusnoma". T., O'qituvchi, 2017. – B. 111.

6. Maxmud Koshgariy "Devonu lugatit turk" III tom T.: Uzb. SSR F.A. nashriyoti. – 1963, – B. 46.